


2021-yil 27-oktabr kuni Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida Amaliy filologiya fakulteti tashkilotchiligida "O'zbek tilini xorijda o'qitish tajribasidan" mavzusidagi xalqaro vebinar o'tkazildi. Vebinarida Anqara universiteti professori (Turkiya) AYNUR O'Z O'ZJAN, Gazi universiteti professori (Turkiya) FATMA ACHIK, Jomiya Milliy Islomiy universiteti professori (Hindiston) SHAHID TASLEEM, Bartin universiteti professori (Turkiya) ZILOLA XUDAYBERGANOVA, University College London (Buyuk Britaniya) tadqiqotchisi JOSEPH BUCKLEY, ToshDO'TAU doktoranti (O'zbekiston) GULRUXSOR ERGASHEVAlar o'z ma'ruzalari bilan qatnashishdi. Vebinarida xorijda o'zbek tilini o'qitish yuzasidan olib borilayotgan tadqiqotlar, uni o'rgatish bo'yicha yangi metodikalar haqida fikrlar almashildi. Xorijiy universitetlar va ToshDO'TAU talabalari hamda professor-o'qituvchilarining akademik mobilligi yuzasidan muzokaralar o'tkazildi.

Vebinarida, shuningdek, ToshDO'TAU doktoranti G.Ergasheva va o'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi talabalari tomonidan tayyorlangan "O'zbekona" darsligining birinchi (A1) va ikkinchi (A2) kitobining ham taqdimoti o'tkazildi.

Shuhrat Sirojiddin | ToshDO'TAU rektori
Forwarded from ToshDO'TAU | RASMIY



#xalqaro_vebinar

2021-yil 27-oktabr kuni Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida Amaliy filologiya fakulteti tashkilotchiligida "O'zbek tilini xorijda o'qitish tajribasidan" mavzusidagi xalqaro vebinar o'tkazildi.